



INDIAN

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE

**THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC
RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY**

 **2025 YEAR**

INDIAN, NEW DELHI



THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY

International scientific-online conference

Part 31

March 21st

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

NEW DELHI 2025

THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY: a collection scientific works of the International scientific online conference (21st March, 2025) -INDIA, New Delhi : "CESS", 2025. Part 31 – 144p.

Chief editor:

Candra zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, india, english, казахша, о'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference "THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY". Which took place in New Delhi on March 21, 2025.

Conference proceedings are recomanded for scientits and teachers in higher education esteblishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2025

© Authors, 2025



Xasanova Gulchexra Kamolovna <i>LIRIKADA GUL OBRAZI TASVIRI</i>	76
Midinova Damira Olimovna <i>BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QISH VA YOZISHGA O'RGATISH USULLARI</i>	79
Eshmirzayeva Shakhlo Mirzayeva Feruza <i>SYNTACTIC STRUCTURE OF ADVERBS WITH A PRONOUN COMPONENT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES</i>	82
Rustamova Dilafruz, Mirzayeva Feruza <i>SIMPLE SENTENCES SODDA GAPLAR</i>	88
Suyunov Sherzod Sindarovich <i>HARBIY XIZMATCHILARNI OVQATLANTIRISHDA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI</i>	92
Abdulkhakimova Odinaxon Abdilbosit qizi <i>GEORGE ORWELL: A GREAT REPRESENTATIVE OF POLITICAL LITERATURE</i>	97
Abdusamiyev Dilmurod Abdugani oglu <i>TEACHER'S PROFESSIONAL IDENTIFICATION - A CRITERION OF THE EFFECTIVENESS OF PEDAGOGICAL ACTIVITY</i>	100
Yakhshiboyev R.E <i>THE STRATEGIC IMPACT OF TELEMEDICINE ON THE DIGITAL EVOLUTION OF HEALTHCARE</i>	104
Valijon M Makhmudov, Mahmudbek Madaliyev Saidaxon Turdaliyeva, Dilbarxon Rahimova <i>FARG'ONA VILOYATIGA INTRODUKSIYA QILINGAN LIANA O'SIMLIKLARI: NAYCHA GULLI TEKOMA (CAMPSIS RADICANS), BESH YAPROQLI PARTENOSISSUS (PARTENOSISSUS QUINDIEFLIA), XITOIY GLITSINIYASI (WISTERIA SINENSIS), YASEMIN (JASMINUM OFFICINALE) VA DOLICHOS LABILA (DOLICHOS LABLAB) NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI</i>	111
Xoliqov Shoxjahan Aliyor o'g'li Giyazova Nozima Bayazovna <i>KIBERXAVFSIZLIK – RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI</i>	117
Rajabov Shohijahon Yo'ldosh o'g'li Giyazov Baxodir Bayazovich <i>RAQAMLI IQTISODIYOTDA ISHLAB CHIQUV KORKONALARINI TRANSFORMATSIYALANISHI</i>	122
Shavkatov Shermuhammad Giyazov Baxodir Bayazovich <i>RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI</i>	128
Suvonov Davlatjon Ramz o'g'li Giyazova Nozima Bayazovna <i>RAQAMLI VALYUTA VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI</i>	134
Zaripova Madinaxon Shomuxammadi qizi <i>"RIVOJLANISH PSIXOLOGIASIDAGI TAHLILY ASPEKTLAR: KOGNITIV VA EMOSIONAL RIVOJLANISHNING INTEGRATSION YONDASHUVI"</i>	140

KIBERXAVFSIZLIK – RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI

Xoliqov Shoxjahon Aliyor o'g'li

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 3-bosqich talabasi

Giyazova Nozima Bayazovna

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakul'teti Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti, i.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada kiberxavfsizlikning raqamli iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni, asosiy tahdidlar va ularni oldini olish choralari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan bog'liq xavflar, jumladan fishing, zararli dasturlar, DDoS hujumlari va ichki tahdidlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha zamonaviy texnologik va huquqiy yondashuvlar muhokama qilinadi. Maqolada iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun kiberxavfsizlikni mustahkamlash muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Kiberxavfsizlik, raqamli iqtisodiyot, axborot xavfsizligi, fishing, DDoS, zararli dasturlar, autentifikatsiya, shifrlash, kiberjinoyatlar.

Raqamli texnologiyalar va internetga asoslangan iqtisodiyotning rivojlanishi kiberxavfsizlik masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirdi. Hozirgi kunda korxonalar, davlat tashkilotlari va jismoniy shaxslar o'z faoliyatining aksariyat qismini onlayn muhitga o'tkazmoqda. Biroq, bu jarayon kiberjinoyatlar, ma'lumotlar o'g'irlanishi va firibgarlik kabi tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi kiberxavfsizlik tizimlarining samaradorligiga bog'liq. Ushbu maqolada kiberxavfsizlikning iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati, mavjud tahdidlar va himoya choralari tahlil qilinadi.

Kibervafsiizlik iqtisodiyotning uzluksiz ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Banklar, moliyaviy institutlar, korporatsiyalar va davlat tashkilotlari kiberxavfsizlik choralarini ko'rmasalar, hujumlar tufayli katta moliyaviy yo'qotishlarga duch kelishlari mumkin. Shuning uchun, iqtisodiy barqarorlik uchun mustahkam himoya tizimlari zarur.

Kiberhujumlar kompaniyalarga katta zarar yetkazishi mumkin. Masalan, ma'lumotlar o'g'irlanishi, to'lov tizimlariga kiberhujumlar, ransomware (fidyeli dasturlar) orqali shantaj qilish kabi xurujlar milliardlab dollar yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Shu sababli, yirik kompaniyalar kibervafsiizlik texnologiyalariga katta investitsiyalar kiritadi.

Kibervafsiizlik sohasi nafaqat iqtisodiyotni himoya qiladi, balki yangi biznes va ish o'rinlarini ham yaratadi. 2025-yilga borib, kiberxavfsizlik sohasi dunyo bo'ylab 3,5 milliondan ortiq bo'sh ish o'rinlarini talab qilishi kutilmoqda. IT mutaxassislari, axborot xavfsizligi ekspertlari, etikal xakerlar va malakali dasturchilar bu sohada ishlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Investitsiyalar va kapital bozorlari uchun kibervafsiizlik muhim omil hisoblanadi. Agar kompaniya yoki bank kiberhujumlarga moyil bo'lsa, investorlar unga mablag' tikishdan qo'rqishadi. Masalan, Facebook (Meta), Yahoo yoki Equifax kabi kompaniyalarning ma'lumotlarining o'g'irlanishi ularning aksiyalarining keskin tushib ketishiga sabab bo'lgan.

Shuning uchun, yirik investorlar va fond birjalari kompaniyalarning kibervafsiqlik strategiyasiga katta e'tibor qaratadi.

Bugungi kunda ko'plab tranzaksiyalar raqamli shaklda amalga oshiriladi. Elektron tijorat, kriptovalyutalar, fintech kompaniyalari va raqamli to'lov tizimlari kibervafsiqlikning rivojlanishiga bog'liq. Agar internet orqali amalga oshiriladigan savdolar himoyalansin, iste'molchilar ishonchini yo'qotib, raqamli iqtisodiyot sekinlashishi mumkin.

Davlat iqtisodiyotining asosiy sektorlaridan biri bo'lgan energiyaga ta'minot, transport, sog'liqni saqlash va moliya tizimlari kiberhujumlar oldida himoyasiz bo'lsa, bu iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli, ko'plab davlatlar kibervafsiqlik bo'yicha maxsus agentliklar va strategiyalar ishlab chiqib, bu sohani rivojlantirishga katta mablag' ajratmoqda.

Kibervafsiqlik shuningdek, iste'molchilar ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Agar mijozlar o'zlarining bank ma'lumotlari, shaxsiy ma'lumotlari yoki onlayn xaridlari xavfsizligini his qilishsa, iqtisodiy faollik oshadi. Aks holda, odamlar onlayn to'lovlardan yoki internet orqali biznes yuritishdan qo'rqishi mumkin.

1-jadval

Kiberxavfsizlik bo'yicha yetakchi va zaif davlatlar (2024)

	Davlat	Kiberxavfsizlik reytingi	Xavf darajasi	Ko'p uchraydigan kiberhujum turlari	Yetkazilgan zarar (mlrd \$)
1	AQSh	Juda yuqori	Past	Ma'lumotlar buzilishi, ransomware	10+
2	Buyuk Britaniya	Juda yuqori	Past	Fishing, DDoS hujumlari	5+
3	Yaponiya	Juda yuqori	Juda past	IoT hujumlari, ma'lumotlar buzilishi	2+
4	Singapur	Yuqori	Juda past	Moliyaviy firibgarlik, fishing	1+
5	Daniya	Yuqori	Juda past	Ransomware, phishing	1+
6	Rossiya	O'rta	O'rta	DDoS, davlat tizimlariga hujumlar	3+
7	Xitoy	O'rta	Yuqori	Sanoat josusligi, ma'lumotlar buzilishi	5+
8	Hindiston	Past	Yuqori	Mobil xakerlik, fishing	6+
9	Nigeriya	Juda past	Juda yuqori	Kiberfiribgarlik, fishing	1+
10	Indoneziya	Juda past	Juda yuqori	Ransomware, ma'lumotlar buzilishi	2+

Demak Buyuk Britaniya va AQSHda kibervaxf darajasi past lekin rivojlanish darajasi yuqori bo'lganligi sababli kiberhujum natijasida eng ko'p zarar ko'radi. Asosiy hujum ma'lumotlar buzilishi hamda fishing. Yaponiya, Singapur, Daniyada esa kibervaxf darajasi juda past moliyaviy yo'qotishlar ham o'rtacha 1-2 mlrd dollarni tashkil etadi. Yaponiya elektronika sohasida rivojlanganligi sababli ko'pgina kiberhujumlar internet buyumlariga bo'ladi. Nigeriya va Indoneziyada kibervaxf darajasi juda yuqori. Davlatlar rivojlanmaganligi sababli moliyaviy yo'qotishlar 1-2 mlrd dollar orasida.

Raqamli iqtisodiyotning samarali ishlashi uchun ishonchli kibervaxfsizlik tizimi zarur. Quyidagi jihatlar uning ahamiyatini ko'rsatadi:

- Ma'lumotlarni himoya qilish – korxonalar va davlat tashkilotlarining maxfiy axborotlarini saqlash.

● Moliyaviy xavfsizlik – bank tizimlari va elektron to'lovlarning himoyalanganligini ta'minlash.

● Foydalanuvchi ishonchini oshirish – mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari himoyalangan bo'lsa, raqamli xizmatlardan foydalanish ortadi.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan birga kiberjinoyatlar ham murakkablashib bormoqda. Quyida eng xavfli kiberxavfsizlik tahdidlari tahlil qilinadi: Fishing hujumlari – Firibgarlar soxta elektron pochta xabarlar yoki veb-saytlar orqali foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini qo'lga kiritishga harakat qilishadi; Zararli dasturlar (viruslar, troyanlar, ransomware) – Bu dasturlar qurilmalarga o'rnatilib, tizimlarni shikastlaydi, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash yoki bloklash orqali foydalanuvchilardan pul talab qiladi; DDoS hujumlari – Korxona yoki davlat tashkilotlarining serverlariga haddan tashqari yuklama berish orqali ularning xizmatlarini ishdan chiqarish maqsadida uyushtiriladi; Ichki tahdidlar – Kiberxavfsizlikka eng katta xavflardan biri tashkilot ichidagi xodimlar tomonidan yuzaga kelishi mumkin. Bu, ehtiyotsizlik yoki qasddan axborotni oshkor qilish orqali sodir bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi kiberxavfsizlik choralarini amalga oshirish muhimdir:

2-jadval

Kiberxavfsizlikni ta'minlash strategiyalari.

Strategiya	Tavsif
Kuchli autentifikatsiya tizimlarini joriy etish	Ikki bosqichli autentifikatsiya, biometrik ma'lumotlar va murakkab parollar orqali tizim xavfsizligini oshirish
Shifrlash texnologiyalaridan foydalanish	Ma'lumotlarni uzatish va saqlash jarayonida shifrlash algoritmlaridan foydalanish orqali axborotlarning maxfiyligini ta'minlash.
Xodimlarni muntazam ravishda o'qitish	Korxonalarda kiberxavfsizlik bo'yicha muntazam treninglar o'tkazish, xodimlarning xabardorligini oshirish
Zaxira nusxalarini yaratish	Muhim ma'lumotlarni doimiy ravishda zaxiralash orqali ransomware hujumlariga qarshi himoyalash
Xavfsizlik devorlari (firewall) va antivirus dasturlarini yangilash	Tizimlarni yangi tahdidlardan himoya qilish uchun ularning xavfsizlik choralarini doimiy ravishda yangilab borish.

Zamonaviy raqamli dunyoda kiberxavfsizlik tashkilotlar va jismoniy shaxslar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalar rivojlanishi bilan birga kiberjinoyatchilik ham ortib bormoqda. Shu sababli, axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha samarali strategiyalarni qo'llash dolzarb masalalardan biridir.

Yuqoridagijadvaldakiberxavfsizlikni ta'minlash uchun eng muhim strategiyalar va ularni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Kuchli autentifikatsiya tizimlarini joriy etish, shifrlash texnologiyalaridan foydalanish, xodimlarni muntazam o'qitish, zaxira nusxalarini yaratish hamda xavfsizlik devorlarini yangilab borish asosiy choralar sifatida tavsiya etiladi. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish natijasida tizimlarning himoyasi kuchayib, kiberxavfsizlik tahdidlariga qarshi samarali kurashish mumkin bo'ladi. Shuningdek, har bir tashkilot yoki foydalanuvchi kiberxavfsizlikni o'z faoliyatining

ajralmas qismi sifatida qabul qilishi lozim. Zero, axborot xavfsizligini ta'minlash nafaqat tizimlarni himoya qilish, balki ma'lumotlarning yaxlitligi va maxfiyligini saqlash uchun ham muhim sanaladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga kiberxavfsizlik muammolari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kiberjinoyatlar tashkilotlar va shaxsiy foydalanuvchilarga katta iqtisodiy zarar yetkazishi, ma'lumotlarning maxfiyligini buzishi va ishonchni pasaytirishi mumkin. Shu sababli, kuchli kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bugungi kunda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada kiberxavfsizlikning raqamli iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rnini, asosiy tahdidlar va ularni bartaraf etish usullari tahlil qilindi. Ma'lumotlarni shifrlash, ikki bosqichli autentifikatsiya, xodimlarni o'qitish va zamonaviy kiberxavfsizlik texnologiyalarini qo'llash kiberjinoyatlarga qarshi samarali choralar hisoblanadi.

Kelajakda raqamli iqtisodiyot barqaror rivojlanishi uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim bo'lib, kiberxavfsizlik bo'yicha qonunchilikni yanada kuchaytirish, ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish va aholining xabardorligini oshirish zarur. Shu tariqa, kiberxavfsizlik nafaqat texnologik muammo, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
2. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). RAQAMLASHTIRISH-MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 113-121.
3. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATION MARKETINGDAN FOYDALANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 49(49).
4. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. European Journal Of Business Startups And Open Society, 2(11), 1-5.
5. Giyazova, N.B. (2024). INCREASING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 455-461.
6. Giyazova, N.B., & Sh.B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. Science and innovation, 3(Special Issue 42), 482-489.
7. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MOBILE INTERNET. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(49), 250-256.
8. Rustam o'g'li, R. J., & Bayazovna, G. N. (2025). MOBIL TO 'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 193-197.

9. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. Science and innovation, 3(Special Issue 42), 371-376.
10. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.
11. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2022). The role of banking and accounting in the development of small business and entrepreneurship. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 136-143.
12. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 35(35).
13. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Indexing, 1(1).
14. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 496-502.
15. Mubinovna, R. F. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 220-225.
16. <https://www.itu.int> - Halqaro elektroaloqa uyushmasining rasmiy sayti.
17. <https://ncsi.ega.eg/country/uz/> - National Cyber Security Index.
18. <https://tace.uz> - Kiberxavfsizlik markazi davlat unitar korxonasi rasmiy sayti